



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

### IQTISODIY-IJTIMOIIY RIVOJLANISHDA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMIDA TIBBIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING XALQARO INTEGRATSIYALASHUVI

Baxtiyorova Vasilaxon Muzaffarovna

Ma'mun universiteti Iqtisodiyot fakulteti 24.1 guruh talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada respublikamizda tibbiy turizmni rivojlantirishning xalqaro tajribalari va ularni mamlakatimizda qo'llash shart-sharoitlari o'rganilib, tarmoq imkoniyatlari chuqur taxlil qilingan

**Kalit so'zlar:** tibbiy turizm, integratsiya, xususiy tibbiy xizmat, turizm bozori, tibbiy texnologiyalar

**Аннотация:** В данной статье изучается международный опыт развития медицинского туризма в нашей республике и условия его применения в нашей стране, а также углубленно анализируются возможности сети.

**Ключевые слова:** медицинский туризм, интеграция, частная медицинская услуга, туристический рынок, медицинские технологии

**Abstract:** In this article, the international experiences of developing medical tourism in our republic and the conditions of their application in our country are studied, and network possibilities are analyzed in depth.

**Key words:** medical tourism, integration, private medical service, tourism market, medical technologies

Inson hayot faoliyati natijasida tibbiy xizmatlarga ehtiyoj sezadi. Sababi tibbiy turizm chet elda sifatli davolanish va diagnostika olish imkoniyatidir. Har yili yuz minglab bemorlar tibbiy turizmdan dam olish maqsadida boshqa mamlakatlarga sayohat qilishadi. Tibbiy turizmning yildan-yilga tinimsiz rivojlanishining asosiy sabablari xalqlarning tibbiy integratsiya imkoniyatining mavjudligidir.

Tibbiy turizm xaritasida sog'liqni saqlash tizimi alohida o'rinni egallab, tibbiy xizmatlar sifati va ularning narxi jihatidan chet elliklar uchun jozibadorligini oshirmoqda.

Statistik ma'lumotlarga qaraganda, tibbiy turizm bozor hajmi 2020 yilda 10,1 milliard dollardan oshdi va 2021 yildan 2027 yilgacha o'rtacha 12 foizdan oshishi kutilmoqda, hamda tibbiy turizm haqida axborotlarning almashinishi tibbiy xizmatlar bozori o'sishining asosiy omillaridan biri bo'ladi. Rivojlanayotgan mamlakatlardagi turli tibbiy markazlar, jumladan, davlat va xususiy, hukumatlar bilan bir qatorda tibbiy turizmni va ular taklif qilayotgan turli imtiyozlarni ilgari surish bo'yicha tashabbuslar ko'rsatmoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda tibbiy xizmat turlarining ko'pligi, arzonligi, tibbiy turizm bozorini kengaytirishga yordam beradi. So'nggi bir necha yil ichida mamlakatlar o'z tibbiy sayohat markazlarini yaratish va ularni sig'imini kengaytirishga muvaffaq bo'lmoqda. Biroq, COVID-19 pandemiyasi tibbiy turizm bozoriga sezilarli ta'sir ko'rsatdi, Chunki,



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

bemorlar yoki shaxslarga davolanish uchun boradigan joylariga borishga ruxsat berilmadi va xavfli deb qaraldi. Bu tibbiy turizm bozoriga bog'liq bo'lgan mamlakatlarning iqtisodiy inqirozga olib kelishi mumkin. Bu borada, mamlakatlarda masofadan turib tibbiy xizmat ko'rsatishning yangi turi – telemedetsina xizmatlari orqali bemorlarni davolash ishlari olib borildi.


Tibbiy turizm bozorida rivojlangan mamlakatlar bilan tajriba almashish, turli yo'nalishlarda tibbiy xizmat ko'rsatish kabi imkoniyatlarni yaratish tibbiy turizm bozorini yanada kengaytiradi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, turizm bozorida Yevropada tibbiy turizm bozori 11,7% dan oshdi. Tibbiy turizm bozori o'sishiga turtki beradigan asosiy omillar qatoriga - rivojlanayotgan mintaqalarda kamdan -kam uchraydigan eng yangi texnologiyalar va tibbiy asbob-uskunalar orqali xizmat ko'rsatuvchi malakali xodimlarning mavjudligini kiritish mumkin.

Dunyo mamlakatlarida tibbiy turizm yangi davrda yangi tendensiyalar bilan rivojlanmoqda. Jahon tibbiy turizm bozori 2019-yilda 33 milliard AQSH dollar foyda keltirib, xalqaro turizm bozorida munosib o'rin egalladi. Dam olish va yuqori tibbiy xizmatlarni taklif etish, nafaqat aholiga sog'lom hayot balki, sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish imkonini beradi.

Tibbiy turizm bir vaqtning o'zida bir necha yo'nalishlarni ya'ni- sog'liqni tiklash, dam olish, transport, ovqatlanish, davolash kabi asosiy elementlar bilan birlashib, inson sog'ligiga ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy sharoitda, eng muhim ijtimoiy vazifalaridan biri -kishilarning sog'lig'ini saqlash, ayniqsa urbanizatsiyaga moyil bo'lgan hududlarda yashovchilar va faol iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi kishilarning dam olishi, sog'ligini tiklashi- kelajakda ro'y berishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarining oldini olishga yordam beradi. Reabilitatsiya, parvarishlash va sog'lig'ini tiklash turli mintaqalarda joylashgan tibbiyot muassasalarida amalga oshiriladi va tibbiy turizmga sharoit yaratadi

1-rasm.



(2020-2027-yillarda jahon hududlarida tibbiyot turizmi prognozlarini mln dollar)

Shuningdek, Butunjahon Turizm Tashkiloti (World Tourism Organization) ma'lumotiga ko'ra, 2017-yil xalqaro turizm bozori 5% o'sish bilan 1.6 trillion dollar daromad keltirdi. Tibbiy maqsadda tashrif buyurganlar 14-16 million kishini tashkil etdi. World Travel & Tourism Council konsullikning ta'riflarida, 2018-yil xalqaro turizm bozori jahon iqtisodiyotining 10.4% ni egallaganini to'g'risida ma'lumot keltirib o'tgan. Xalqaro bozorda tibbiy turizm yangi yo'nalish sifatida AQSH da yuksak darajada rivojlandi va 2018-yil 13



## **"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"**

milliard dollar foyda keltirdi. Global Wellness Institute ma'lumotlariga ko'ra AQSH 2025-yilga kelib xalqaro turizm bozorida eng katta ulushga ega 140 milliard dollar daromad olishi kutilishini taxmin qilgan.

Tibbiy turizm - bu chet elda dam olishni yuqori malakali tibbiy yordam olish bilan birlashtirgan holda, yashash joyidan tashqarida tibbiy xizmat ko'rsatish amaliyotini anglatuvchi atama hisoblanadi. Ba'zi mualliflar uchun tibbiy turizm bu o'z mamlakatidagi bemor uchun mavjud bo'lmagan eng yaxshi tajribaga ega bo'lish imkoniyatini bildiradi deb qaraladi. Umuman olganda tibbiy turizm - bu eng yaxshi narxlar va sifatli tibbiy xizmatlar orqali davolanish uchun sayohatdir. Yuqoridagilar kelib chiqib, O'zbekistonda tibbiy turizm bozorini rivojlantirish yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Tibbiy maslahat beruvchi sog'lomlashtiruvchi markazlarni tashkil etish
2. Davolovchi kliniklar tibbiy xizmatlarini rivojlantirish
3. Kurort zonalar, sog'lomlashtiruvchi amaliyotlarni tashkil etish
4. Xalq tabobati usullari (Xitoy, turk, hind tabobati)ni rivojlantirish

Tibbiy turizm dam olishni tashkil etuvchi turistik firmalar, mehmonxonalar faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lib, ularda ko'rsatiladigan xizmatlar turizmning asosiy vositasi hisoblanadi.

Darxaqiqat turistik xizmatlar ko'rsatuvchi korxonlarning joylashtirish vositalari turlari bo'yicha tasniflanib, dam olish, sayohat qilish, sog'liqni tiklash maqsadida xizmat ko'rsatadi.

Respublikamizga so'nggi yillarda tashrif buyurayotgan turistlar soni ko'paymoqda. Davolanish sog'liqni tiklash maqsadida kelgan turistlarning jamoaviy joylashtirish vositalari faoliyati mehmonxonalar, sanatoriya-kurort muassasalari, dam olish tashkilotlari va turistik bazalari bo'yicha tahlil qilingan. Ushbu jadvalda respublikamiz hududlarida tibbiy turizmni rivojlanishining istiqbollari yo'nalishlariga ega ekanligini ko'rish mumkin. 2020 yil 27-mayda yangi tashkil etilgan O'zbekiston Respublikasi "Tibbiy turizm Assosatsiyasi" O'zbekistonga nafaqat ko'xna me'moriy yodgorliklarni va betakror tabiat va madaniyatni tomosha qilish, balki sog'liqni tiklash davolanish maqsadida sayohat qiluvchilarni jalb qilish imkoniyatiga ega ekanligini ta'kidlamogda. O'zbekistonda tibbiy sug'urta tizimi mavjud emas lekin fuqarolarga davlat kasalxonalarida esa tibbiy xizmat bepul ko'rsatiladi. Davolanish uchun O'zbekistonga kelgan sayyohlar eng zamonaviy standartlar va arzon narxlarda munosib tibbiy xizmat ko'rsatish sharoiti mavjud. Betekror tabiat, iqlim, tabiiy muolajalar, sanatoriyalar, dispanserlar va kurort zonalarida sayyohlarning sog'ligini tiklash va dam olishini ta'minlaydi. 2020-2021yil "Tibbiy turizm indeksi"da Osiyo mamalatlari yetakchilik qiladi. "Tibbiy turizm Assosatsiyasi"si mamalakatimizda tibbiyot sohasidagi yetakchi davlatlar bilan ma'lum bir kasalliklarni davolash tashxis qo'yish, dam olishni tashkil etish maqsadida, turli xil konferensiya, uchrashuvlar va shartnomlar qilmoqda. Respublikamizda onkologik kasalliklarning oldini olish davolash maqsadida dunyoning rivojlangan Kanada, Buyuk Britaniya, Isroil, Singapur, Hindiston davlatlari bilan ushbu kasalliklarni davolash borasida tajriba almashib, hamkor davlatlar investorlarni O'zbekistonga jalb qilmoqda. Ana shunday dasturlarning qabul qilinishi O'zbekistonda tibbiy turizmning rivojlanishiga va sayyohlarni jalb qilish imkonini beradi.



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026 "

Bu esa keleajakda tibbiyot turizm tajribalarini keng ko'lamli va rivojlantirish orqali hududlarda MICE turizmini shakllantirish imkoniyatlarining yaratilishiga xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.UNWTO Tourism Highlights 2018 Edition.  
<https://www.eunwto.org/doi/pdf/10.18111/9789284419876>;
2. Телемедицина. Возможности и развитие в государствах – членах. Доклад о результатах второго глобального обследования в области электронного здравоохранения. Глобальная обсерватория по электронному здравоохранению. Том 2
3. World Travel & Tourism Council. Travel & Tourism Economic Impact 2019 World.
4. World Health Organization. Clinical guidelines for the management of patients with severe acute respiratory infection suspected of being infected with a novel coronavirus (2019-nCoV). URL: [http://www.euro.who.int/\\_\\_data/assets/pdf\\_file](http://www.euro.who.int/__data/assets/pdf_file)
5. O'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasi ma'lumoti. [www/stat.uz](http://www/stat.uz)  
<https://uzbekistan.travel/uz/v/meditsinskiy-turizm/>